



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 21-oktabr

566-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyat hokimining 2024-yil 15-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘chiligi tizimini yanada takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 2-oktabrdagi 622-son qarori ijrosi haqida”gi 479-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 2-oktabrdagi “Qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘chiligi tizimini yanada takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 622-son hamda Namangan viloyat hokimining 2024-yil 15-oktabrdagi 479-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash, maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyat hokimining 2024-yil 15-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘chiligi tizimini yanada takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 2-oktabrdagi 622-son qarori ijrosi haqida”gi 479-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 2-oktabrdagi 622-sonli qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi hamda Davlat aktivlarini boshqarish agentligining Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi “Urug‘chilikni rivojlantirish markazi” davlat muassasasi (keyingi o‘rinlarda Markaz) tarkibidagi mas‘uliyati cheklangan jamiyatlar bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardagi 13 ta urug‘chilik xo‘jaligini birlashtirish orqali elita urug‘chilik korxonalarini tashkil etish to‘g‘risidagi taklifga rozilik berilganligi;

Quyidagilar:

Ommaviy savdolar orqali davlat ulushi to‘liq sotiladigan elita urug‘chilik korxonalarining ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq;

“Urug‘chilikni rivojlantirish markazi” tarkibidagi mas‘uliyati cheklangan jamiyatlar bilan urug‘chilik xo‘jaliklarini birlashtirish orqali tashkil etilgan elita urug‘chilik korxonalarining 100 foiz davlat ulushidan 49 foizi ommaviy savdolar orqali sotiladiganlarining ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq;

Qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘chiligiga ixtisoslashgan ilmiy- tadqiqot institutlarini rivojlantirish bo‘yicha 2024-2027-yillarga mo‘ljallangan dastur (keyingi o‘rinlarda Dastur) 3-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi:

ikki oy muddatda 1-ilovaga muvofiq elita urug'chilik korxonalarining davlat ulushi to'liq Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga o'tkazilishini tashkil etishi;

2024-yil yakuniga qadar 2-ilovaga muvofiq elita urug'chilik korxonalarini tashkil etishi va ularning sotilishi belgilangan davlat ulushini Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga o'tkazilishini ta'minlashi;

elita urug'chilik korxonalarini ulushini xususiylashtirish shartlari bo'yicha takliflarni Davlat aktivlarini xususiylashtirish va xususiylashtirish jarayonlarini muvofiqlashtirish davlat komissiyasiga kiritishi;

O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi 2-ilovaga muvofiq elita urug'chilik korxonalarining sotilishi belgilangan davlat ulushi ommaviy savdolarga chiqarilishini ta'minlashi;

Belgilanishicha, elita urug'chilik korxonalarining sotilishi belgilangan davlat ulushi 2025-yildan boshlab ommaviy savdolarga chiqarilishi;

2025-yildan boshlab qishloq xo'jaligi ekinlarining (g'o'za, boshqoli don ekinlari va kartoshka) yangi navlarini sinash, birlamchi va avlodli urug'chiligini tashkil etishning tartibi joriy etilishi;

Boshqoli don ekinlari urug'chiligi bilan shug'ullanuvchi ilmiy tashkilot nav originatori tomonidan birlamchi urug'lik materiallarining (birinchi va ikkinchi yil ko'paytirish ko'chatzori) urug'chilik subyektlariga sotilishi 2025-yildan boshlab to'xtatilishi va birlamchi urug'chilik (ikkinchi yil ko'paytirish ko'chatzori) O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining taqsimotiga asosan elita urug'chilik xo'jaligi maqomiga ega bo'lgan tashkilotlar va ilmiy-tajriba stansiyalarida yo'lga qo'yilishi xamda boshqoli don ekinlarining original (super elita) va elita urug'liklari urug'chilik subyektlariga shartnoma asosida sotilishi;

Belgilanishicha, 2025-yil hosilidan boshlab tayyorlanadigan urug'lik chigit va urug'lik don uchun ustama haqlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 2-oktabrdagi 622-son qarori 9-bandida nazarda tutilgan miqdorlarda to'lanishi.

Urug'lik tayyorlash korxonalarini tomonidan ekish uchun sarflangan (sotilgan) urug'lik (chigit, don) miqdorlari bo'yicha "hisob-dalolatnoma"ni Markazga, nav originatori va muallifiga hamda urug'chilik subyektlariga topshirish muddati har yili 1-iyulga qadar, ustama haqlarini yakuniy to'lab berish muddati har yili 1-avgustga qadar etib belgilanganligi;

O'zbekiston Respublikasi Hukumatining 4-ilovaga muvofiq ayrim qarorlariga o'zgartirishlar kiritilganligi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Tuman Qishloq xo'jaligi bo'limi (A.Xakimov) tegishli tashkilotlar bilan birgalikda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 2-oktabrdagi 622-son qarori talablaridan kelib chiqib ish tashkil qilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari B.Muydinov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov